

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Quyidagi topishmoqlardan qaysi birida hisob soʻz mavjud?

- A) Guli toʻrtta yarim oy, Boshginangdan olar joy.
- B) Oʻzi bitta, koʻzi mingta
- C) Bir parcha patir, Olamga tatir
- D) Toʻrtidir uning oyogʻi, Temir mixli tuyogʻi. Manzilga yetishtirar, Toshidan qattiq tuyogʻi.

2. Qaysi iboraning maʼnosi xato izohlangan?

- A) Doʻppisi yarimta – beparvo, begʻam
- B) Qoʻyi mingga yetdi – juda boyib ketdi
- C) Qulogʻidan kun koʻrinadi – juda ozgʻin
- D) Ogʻziga qatiq ivitgan – gapirmaydigan

3. Qaysi soʻzlar qatorida boshqalari bilan oʻzaro maʼnodoshlik hosil qilmaydigan soʻz ishtirok etgan?

- A) hayron boʻlmoq, lol boʻlmoq, anqaymoq
- B) gavdali, norgʻul, barzangi
- C) bahs, munozara, mubohasa
- D) oʻzga, begona, yod

4. *Oʻjaki biram chiroyli, katta. Ertaga oʻviz pishiramiz. Sen oʻvizni yaxshi koʻlasanmi?*

Ushbu parchada qaysi hudud shevasiga xos soʻzlar ishtirok etgan?

- A) Xorazm
- B) Namangan
- C) Andijon
- D) Toshkent

5. Quyidagi qaysi gapda *chakki* soʻzi boshqalariga nisbatan shakldosh.

- A) Bu yerda uning turmushi chakki boʻlmadi.
- B) Chakki yursang, dakki yeysan.
- C) Chakki oʻtgan eski tomga oʻxshayman, koʻzimdan yomgʻirlar toʻkilar tinmay.
- D) Bu kishini chakki umidvor qilibsiz.

6. Qaysi gapda nuqtalar oʻrniga ayiruv bogʻlovchisini qoʻyish mumkin?

- A) Oʻrtoqlarim . . . men uloqning tezroq boshlanishini kutmoqdamiz.
- B) Farzandlari galma-galdan xivichlarni bir yoʻla sindirishga urinibdi, . . . hech biri buning uddasidan chiqa olmabdi.
- C) Oʻzi balo togʻining . . . ofat bulogʻining boshida oʻltirarmish, kun-u tun, yoz ham qish.
- D) Oʻktam u yoq-bu yoqqa asta yurar, «Komila bu yerda biron ishga . . . majlisga oʻralashib qolmasaydi», deb xavotirlanardi.

7. Quyidagi soʻzlardan qaysi biri arxaik soʻzga misol boʻla oladi?

- A) dudoq
- B) qozi
- C) choʻri
- D) bek

8. Qaysi ijodkor taxallusini mashhur shayx ota-bobolariga ishora qilib qoʻygan?

- A) Navoiy
- B) Yassaviy
- C) Atoyi
- D) Mashrab



9. Navoiyning qaysi asari muammo janri haqida?

- A) "Munshaot" B) "Mezon ul-avzon"
C) "Mufradot" D) "Nazm ul-javohir"

10. Yassaviy hikmatlari qaysi vaznda yozilgan?

- A) barmoq B) aruz
C) erkin D) aruz, barmoq va erkin

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. Qaysi gapda otlashgan son aniqlovchi vazifasida kelgan?

- A) To'qqizida bo'lmagan aql, to'qsonida ham bo'lmas.
B) To'rtovlon ancha suhbatlashdi, keyin ikkitasi uy ichida qoldi, yana ikkitasi esa otiga minib yo'lga ravona bo'ldi.
C) Mingta shirin nasihatdan bitta o'rnak yaxshi.
D) Beshovining ham fikri bir yerdan chiqdi.

12. Payt ravishi ishtirok etgan gaplarni aniqlang.

1. Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin otlariga minib yo'rtib ketishibdi.
 2. Borib anhordan endi suv ichaman deb engashganimni bilaman, changalzor bilinar-bilinmas shitirlagandek bo'ldi.
 3. Barno ertalab tursa, yonida mushugi yo'q.
 4. Oldinda, hurmatli o'rtoqlar, meni shon-u shuhrat kutardi.
 5. U har kungi tashvishlar bilan kun o'tganini ham sezmay qoldi.
- A) 1, 2, 3 B) 1, 2, 3, 4, 5
C) 2, 3 D) 2, 3, 4

13. Barcha so'zlar to'g'ri yozilgan qatorni belgilang.

- A) boloxona, poyabzal, afv B) lotoreya, televideniya, tashviqot
C) shavqat, monitoring, mudofa D) talofat, hashorat, naqorat

14. Quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan ort so'zi haqida berilgan to'g'ri hukmni toping.

1. Mashinalar ortidan ko'tarilgan changdan qochib bo'lmasdi.
 2. Shu payt bir bog' pichanni velosipediga ortib olgan bola yo'ldan o'tib qoldi.
 3. Toshkent aholisining soni kundan kunga ortib bormoqda.
- A) Ikkinchi va uchinchi gaplardagi ort so'zi o'zaro ko'p ma'noli so'zlar sanaladi va ushbu so'z birinchi gapdagi ort so'ziga nisbatan shakldoshlik hosil qila oladi.
B) Ushbu gaplarda qatnashgan ort so'zlarining barchasi o'zaro shakldosh so'zlar sanaladi.
C) Birinchi va uchinchi gapdagi ort so'zlari o'zaro ko'p ma'noli so'zlar sanaladi va ushbu so'z ikkinchi gapdagi ort so'ziga nisbatan shakldoshlik hosil qila oladi.
D) Har uchala gapdagi ort so'zi bir so'zning turli ma'nolarda qo'llanishidir.



15. Qaysi gapda imloviy xatolik uchramaydi?

- A) Bazilar bor – umri umrmas, og‘u,
Bir umr ezilar, armonda ketar.
- B) Birga yashab, bitta tilda so‘zlar-u,
Bir-birining tilin tushinmay o‘tar.
- C) Afsusman egilgan boshlarda,
Tim qora, uyilgan qoshlarda.
- D) Armonman ko‘zdagi yoshlarda,
Unitmoq osonmas bizlarni.

16. *Rayonga aziz mehmonlar keladigan bo‘lsa, Xorunboy Ermatov, albatta, ovga olib chiqadi.*
Ushbu gap haqidagi hukmlaridan qaysilari to‘g‘ri?

- 1) bog‘langan qo‘shma gap;
 - 2) ergashgan qo‘shma gap;
 - 3) undalma ishtirok etgan;
 - 4) kiritma ishtirok etgan;
 - 5) tarixiy so‘z mavjud;
 - 6) arxaik so‘z mavjud.
- A) 1, 3, 4, 6 B) 2, 4, 6
C) 2, 3, 4, 5 D) 2, 3, 4, 6

17. *Bu maqolni biz ham bilamiz, - dedi Shoto‘ra.*

Ushbu gapdagi shaxs-son shakllari haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

- A) I shaxs ko‘plik shakli I shaxs birlik ma’nosida qo‘llangan.
- B) II shaxs ko‘plik shakli I shaxs birlik ma’nosida qo‘llangan.
- C) I shaxs ko‘plik shakli I shaxs ko‘plik ma’nosida qo‘llangan.
- D) III shaxs birlik shakli I shaxs ko‘plik ma’nosida qo‘llangan.

18. Atoyi she’rlaridan birida yorning qop-qora sochini laylat ul-qadrga, oppoq yuzini esa subhi sodiqqa o‘xhatadi. Bu qanday san’atni hosil qilgan?

- A) tazod B) talmeh
- C) tajnis D) istiora

19. “To‘nyuquq” bitiktoshida keltirilishicha, Turgash xoqoni Turk xoqoniga qarshi yurish qilgan paytda nima uchun turk xoqoni uyga tushib, To‘nyuquqni jangga yuboradi?

- A) kasal bo‘lib qolgani uchun
- B) xotini vafot etgani uchun
- C) O‘n o‘q xalqi boshqa tomondn hujumga o‘tgani uchun
- D) onasi kasalligi uchun

20. Bobur Samarqandni qo‘lda tutib turish imkonini topa olmagach, keyinchalik qaysi ruboiysini yozgan?

- A) “Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir”
- B) “Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi”
- C) “Beqaydmen-u xarobi siym ermasmen”
- D) “Davron meni o‘tkardi sari somondin”



3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. Bizning qishloq tog' bag'rida,

Tog' bag'rida – bog' bag'rida.

Ushbu she'riy parchada belgili hamda belgisiz qo'llangan munosabat shakllari haqidagi to'g'ri hukmni belgilang.

- A) 4 o'rinda belgili, 2 o'rinda belgisiz qo'llangan munosabat shakllari mavjud
- B) 7 o'rinda belgili, 3 o'rinda belgisiz qo'llangan munosabat shakllari mavjud
- C) 4 o'rinda belgili, 4 o'rinda belgisiz qo'llangan munosabat shakllari mavjud
- D) 7 o'rinda belgili, 4 o'rinda belgisiz qo'llangan munosabat shakllari mavjud

22. Jahonga mashhur Xusrav davrida shohlar yeydigan ba'zi bir taomlarni fuqarolar yeyishi man qilingan, agar o'sha taomni qora xalqdan biror kishining yegani ma'lum bo'lib qolsa, qattiq jazolanar ekan.

Ushbu gapda qatnashgan sof fe'llar haqidagi to'g'ri hukmni toping.

- A) Ushbu gapda ishtirok etgan barcha sof fe'llar yasama fe'l hisoblanadi.
- B) Ushbu gapda ishtirok etgan barcha sof fe'llar bir xil nisbatda.
- C) Ushbu gapda ishtirok etgan sof fe'llar o'timli va o'timsiz fe'llar hisoblanadi.
- D) Ushbu gapda ishtirok etgan barcha sof fe'llar bir xil mayl shaklida.

Berilgan matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

TAVSIFNOMA

1. Ismatov Sherjahon Akmal o'g'li 2008-yildan buyon Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 41-UO'T maktabida ta'lim-tarbiya olib kelmoqda. O'tgan yillar davomida Ismatov Sherjahon barcha umumta'lim fanlaridan belgilangan davlat ta'lim standartlari talablarini to'liq bajarmoqda. Mazkur o'quvchi o'zining bilim olishga bo'lgan qiziqishi va ishtiyoqi bilan sinfda ajralib turadi. Barcha fanlarni talab darajasida o'zlashtirayotgan Sh. Ismatov, ayniqsa, ingliz tili va tarix fanlarini chuqur o'rganishga harakat qilmoqda

2. Ta'lim-tarbiya olish barobarida Sherjahon Yoshlar ittifoqi maktab kengashining a'zosi sifatida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ham faol ishtirok etib, o'zining tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobiliyatini namoyon qilib kelmoqda. Ingliz tili bo'yicha viloyat fan olimpiadasida II o'rinni egallab, ta'lim muassasamiz sha'nini Respublika bosqichida himoya etayotir.

3. Sherjahon Ismatov badiiy adabiyotga beqiyos mehr qo'yganligi sababli 2019-yil tuman miqyosida o'tkazilgan "Yosh kitobxonlar" bellashuvining g'olibi sifatida viloyat anjumanida ham ishtirok etdi hamda "Zukko kitobxon" yo'nalishida Faxriy yorliq va 20 nomdagi badiiy asarlar to'plamini qo'lga kiritdi.

4. Ismatov Sherjahon Akmal o'g'li ayni vaqtda o'z imkoniyatlarini ishga solib ingliz tili bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishish maqsadida tinmay o'qib izlanmoqda.

23. Ushbu tavsifnoma matnining 1-qismida ikkala tarafidan vergul bilan ajratilgan bo'lak haqidagi to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) Aytilgan fikrga munosabat ifodalash uchun xizmat qilgan.
- B) O'zidan oldingi bo'lakning ma'nosini aniqlashtirish uchun xizmat qilgan.
- C) Murojaat qilinayotgan shaxsni ko'rsatishga xizmat qilgan.
- D) Sanalayotgan tushunchalardan birini ifodalagan.



24. Ushbu tavsifnoma matnining raqamlab ko'rsatilgan qismlari bilan bog'liq imloviy xatolikni aniqlang.

- A) 2-qismda qo'shimchalar imlosi bilan bog'liq xatolik mavjud.
- B) 3-qismda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatolik mavjud.
- C) 1-qismda bosh harflar imlosi bilan bog'liq xatolik mavjud.
- D) 4-qismda harflar imlosi bilan bog'liq xatolik mavjud.

25. Ushbu tavsifnoma matnining raqamlab ko'rsatilgan qismlari mazmuniga oid to'g'ri hukmni aniqlang.

- A) 1-qismda tavsifnomaning berilish sababi bayon qilingan.
- B) 4-qismda tavsifnoma berayotgan shaxsning orzulari aks ettirilgan.
- C) 3-qismda tavsifnoma berilayotgan shaxsning barcha fanlarning o'zlashtirayotganligi haqidagi ma'lumot berilgan.
- D) 2-qismda tavsifnoma berilayotgan shaxsning yutuqlari haqida ma'lumot berilgan.

26. Ushbu tavsifnoma matniga asoslangan holda gapni to'g'ri davom ettiring.

Toshkent viloyati Piskent tumanidagi 41-UO 'TMning 10- "B" sinf o'quvchisi...

- A) fan va sport sohalarida maktab nomini tanitdi.
- B) ingliz tili va tarix fanlaridan olimpiadalar g'olibiga aylandi.
- C) badiiy adabiyotga mehri va bilimi sababli kitoblar to'plamiga ega bo'ldi.
- D) "Yosh kitobxonlar" bellashuvida viloyatda faxrli o'rin olib respublika bosqichiga o'tdi.

27. "To'nyuquq" bitiktoshi haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.

- A) To'nyuquq ikkinchi turk xoqonligiga asos solgan.
- B) To'nyuquq Bo'g'u tarxon hamda Eltarish xoqon bilan birga mamlakat mustaqilligi, yurt osoyishtaligi, chegaralar daxlsizligi uchun tinimsiz kurash olib borgan.
- C) To'nyuquq bitiktoshi Bilga xoqon davrida yozilgan.
- D) To'nyuquq turk xalqining erkinligi uchun kurashgan.

28. *El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,*

Ahvolida idbor nishoni bil oni,

Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,

Olam elining yamon yamoni bil oni. (Navoiy)

Ushbu ruboiy haqidagi to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) Ushbu ruboiy insoniy fazilatlar haqida
- B) Ruboiyda muqayyad qofiya uchraydi.
- C) Ruboiyda i harfi raviy bo'lib kelgan.
- D) Ruboiy a-a-b-a shaklida qofiyalangan.

29. Quyida berilgan she'rlardan qaysi biri arab va fors she'riyatida uchramay, faqat turkiy adabiyotda uchraydigan she'riy janrga misol bo'la oladi?

- A) Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g'amdin bu imorat bo'ldi vayron oqibat.
- B) Kimki istasa saltanat, saxodur anga shart,
Har va'daki aylasa, vafodur anga shart.
Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,
Ollig'a nekim kelsa, rizodur anga shart.



- C) Muruvvat – barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat – barcha qilmoqdur, demak yo‘q.
D) Naqsh tushmish ko‘zda ul yoshim mening,
Uylakim, bormas buyon yoshim mening.
Komim o‘lmoqdur habibimdin yiroq,
Gar xud o‘lsun Xizrcha yoshim mening.

30. Quyidagi baytlarning qaysi birida husni ta’lil san’ati qo‘llangan?

- A) Subhidam tushib shabnam, bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uzra tomib kam-kam, yog‘di abri naysonlar.
B) Nastarin yuvib yuzni, yosuman tuzib o‘zni,
Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.
C) Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutashdi olamga,
Tog‘lar chekibon larza, titradi biyobonlar.
D) Bulbul o‘qig‘och yig‘lab, subhidam xazon faslin,
G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar.

